



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 5.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



GENDER VARIATIVLIKNING LINGVOLINGVISTIK ASOSLARI

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li

TerDPI katta o'qituvchisi

Tuxtayeva Dildora Axmat qizi

TerDPI 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender variativlik tushunchasi lingvistik hodisa sifatida tahlil qilinadi. Unda erkaklar va ayollar nutqidagi fonetik, leksik, grammatik va pragmatik farqlar ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Gender lingvistikaning shakllanish tarixi, asosiy nazariy yondashuvlar (dominantlik nazariyasi, farqlar nazariyasi va interaktiv model) izohlangan hamda ularning zamonaviy talqinlari keltirilgan. O'zbek tilidagi real nutqiy misollar orqali gender variativlikning milliy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, globallashuv jarayonida gender rollarining o'zgarishi natijasida nutqdagi an'anaviy farqlarning susayib borayotgani ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari gender tenglik, sotsiolingvistika va nutq madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gender variativlik, gender lingvistika, erkak va ayol nutqi, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, diskurs, gender rollari, til va jamiyat, nutq strategiyasi, madaniy stereotiplar, emotsional nutq, kommunikativ xulq-atvor

Аннотация. В статье анализируется понятие гендерной вариативности как языкового феномена. На научно-теоретической основе рассматриваются фонетические, лексические, грамматические и прагматические различия в речи мужчин и женщин. Излагается история становления гендерной лингвистики, основные теоретические подходы (теория доминирования, теория различий и интерактивная модель), а также представлены их современные интерпретации. На примере реальных речевых примеров узбекского языка раскрываются национально-культурные особенности гендерной вариативности. Также показано, что традиционные различия в речи стираются в результате изменения гендерных ролей в процессе глобализации. Результаты исследования имеют важное значение для изучения гендерного равенства, социолингвистики и культуры речи.

Ключевые слова: гендерные вариации, гендерная лингвистика, мужская и женская речь, социолингвистика, прагматика, дискурс, гендерные роли, язык и общество, речевая стратегия, культурные стереотипы, эмоциональная речь, коммуникативное поведение.

Abstract. This article analyzes the concept of gender variability as a linguistic phenomenon. It covers the phonetic, lexical, grammatical and pragmatic differences in the speech of men and women on a scientific and theoretical basis. The history of the formation of gender linguistics, the main theoretical approaches (dominance theory, difference theory and interactive model) are explained and their modern interpretations are presented. The

national-cultural characteristics of gender variability are revealed through real speech examples in the Uzbek language. It is also shown that traditional differences in speech are fading as a result of changing gender roles in the process of globalization. The results of the research are important in the study of gender equality, sociolinguistics and speech culture.

Keywords: gender variation, gender linguistics, male and female speech, sociolinguistics, pragmatics, discourse, gender roles, language and society, speech strategy, cultural stereotypes, emotional speech, communicative behavior.

Inson nutqi jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy qadriyatlari, psixologik modeli va kommunikativ ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq. Ana shu omillar ichida gender – ya'ni erkak va ayolning jamiyat tomonidan belgilangan rollari, xulq me'yorlari – tilga bevosita ta'sir etuvchi muhim kuchlardan biridir.

Gender lingvistika XX asrning so'nggi choragidan boshlab aniq ilmiy yo'nalishga aylandi va uning markaziy kategoriyalaridan biri — gender variativlik tushunchasidir. Gender variativlik — bu erkaklar va ayollar nutqidagi farqlarni, ularning ijtimoiy, psixologik hamda madaniy ildizlarini o'rganadigan ilmiy hodisa bo'lib, tilning sotsiolingvistik tabiatini ochib beradi.

Gender lingvistika 1970–1980-yillarda AQSH va Yevropada feministik harakatlar fonida shakllangan. Tilning erkaklar ustunligiga asoslangan tuzilishi, ayollar nutqining jamiyatda sustroq baholanishi va til orqali gender tengsizlikning mustahkamlanishi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishiga aylandi. M. Lakoffning “Language and Woman's Place” (1975) asari gender lingvistikasining asosiy ishlaridan biridir.

Gender lingvistikada uchta yirik nazariy model mavjud:

- 1) Dominantlik nazariyasi. Erkaklar jamiyatdagi ustun mavqeini nutq orqali namoyon qiladi; ayollar nutqi esa subordinatsiya mahsulidir.
- 2) Farqlar nazariyasi. Erkaklar va ayollar jamiyatda turlicha ijtimoiylashtirilgan; shuning uchun nutqiy uslublar tabiiy ravishda farq qiladi.
- 3) Interaktiv model. Gender nutq orqali har safar qayta “yaratiladi”; erkaklar nutqi ham, ayollar nutqi ham vaziyat va ijtimoiy rolga ko'ra o'zgaradi.

Bu model eng zamonaviy yondashuv hisoblanadi.

Gender variativlik — bu erkaklar va ayollar nutqi o'rtasidagi tizimli farqlar. Ular fonetika, leksika, grammatika, pragmatika va kommunikativ strategiyalarda namoyon bo'ladi.

Fonetik-intonatsion variativlik

Ayollar: ohangi balandroq, pauzalar uzunroq, talaffuzda yumshoqlik ko'p, gaplarni ohang bilan “bezaydi”.

Erkaklar: past ohang, tezroq nutq, artikulyatsiya qattiqroq.

O'zbek nutqidan misol:

Ayol: “Ha, rostdanmi?” — ohang balandroq, emotsional.

Erkak: "Rost." — qisqa, ohang past, keskin.

Leksik variativlik

Ayollar: emotsional soʻzlar (juda chiroyli, oppoq, mayin), munosabat bildiruvchi birliklar (voy, xoʻsh, jonim), nozik maʼno ifodalovchi soʻzlardan koʻproq foydalanadi.

Erkaklar: obyektiv soʻzlar, buyruq mazmunli birliklar, qisqa gaplar, keskin soʻzlar.

Misollar:

Ayol: "Juda yoqimli koʻrinyapsiz."

Erkak: "Yaxshi."

Grammatik variativlik

Ayollar nutqida: muloyim shakllar (boʻlsa kerak, edi, balki), koʻplik shakllari, yumshoq murojaatlar.

Erkaklarda: buyruq-istak feʼli, modal soʻzlarning keskin koʻrinishi (albatta, shubhasiz).

Pragmatik-psixologik variativlik

Ayollar: murosaga moyil, yaʼni murosaga ohangda gapiradi, hamdardlik koʻrsatadi, yaʼni rahmi kelgandek, suhbatga qoʻshilish, qoʻllab-quvvatlash shakllari koʻp.

Erkaklar: raqobatga asoslangan muloqot, yaʼni toʻgʻri va aniq shaklda mavzuni nazorat qilish, yaʼni bir xil tempda boʻladi, suhbatga ustunlik qilish strategiyasi koʻp.

Oʻzbek jamiyatida gender stereotiplari tilga kuchli taʼsir etadi:

Ayollar nutqiga qoʻyilgan madaniy talablar

- ✓ muloyimlik, (rahmat, juda ham xursandman)
- ✓ shirinsoʻzlik, (asalim, juda ham mehribonsiz)
- ✓ mayin ohang, (iltimos)
- ✓ noodob soʻzlardan uzoq boʻlish.

Bu ijtimoiy meʼyor nutqiy strukturalarda oʻz aksini topadi.

Erkaklar nutqiga qoʻyilgan madaniy talablar qatʼiylik, qisqa gapirish, amr ohangi, mulohazada keskinlik.

Oʻzbekcha misollar

Ayol:

"Opajon, bir daqiqaga qarab turasizmi?" "Iltimos yordam berib yuboring"

"Voy, juda chiroyli ekanku!" " Ha yashshamagur!"

Erkak:

"Tur."

"Ketaqol."

"Boʻldi, gap tugadi."

Gender variativlikning psixolingvistik asoslari

Emotsional intellekt va nutq

Ayollar yuqori emotsional sezgirlik tufayli: emotsional ifodaga boy soʻzlar tanlaydi, suhbatdoshning holatiga mos ohang qoʻllaydi.

Erkaklar: emotsional neytrallikni saqlaydi, mulohaza obyektiv boʻladi.

Hayotiy misol: Bir vaziyat — ikki xil nutq

Tasavvur qiling, bir idorada ishchi kelmay qoldi va rahbar uni ogohlantirishi kerak.

Ayol rahbarning nutqi:

“Nega kech qoldingiz? Biror muammo boʻldimi? Agar sabab boʻlsa, ayting, balki birgalashib yechimini toparmiz.” Bu yerda: muloyim soʻroq shakli ishlatilgan, hamdardlik bildiruvchi ohang bor, muammo sababiga qiziqish seziladi, suhbatdoshni tushunishga urinish mavjud.

Erkak rahbarning nutqi:

“Nega kech qolding? Bu oxirgi marta boʻlsin. Keyingi safar ogohlantirmayman.” Bu yerda esa: buyruq va ogohlantirish ohangi kuchli, qisqa va keskin gaplar, emotsional yaqinlik yoʻq, ustuvorlik koʻrsatilgan.

Ushbu misolda gender variativlik quyidagilarda koʻrinmoqda:

Koʻrinish	Ayol nutqi	Erkak nutqi
Ohang	Yumshoq, emotsional	Keskin, rasmiy
Leksika	“Birgalashib topamiz”	“Oxirgi marta”
Strategiya	Hamdardlik va muloqot	Nazorat va ogohlantirish
Pragmatika	Murosaga moyil	Ustunlikka asoslangan

Bu farqlar biologiya emas, balki: ijtimoiy tarbiya, madaniy stereotiplar, liderlik modeli, nutq meʼyorlari natijasida shakllangan.

XXI asrda gender rollari oʻzgarimoqda, natijada: ayollar qatʼiyroq, rasmiyroq nutqdan foydalanmoqda, erkaklar yumshoq, emotsional nutqdan foydalanmoqda, ijtimoiy rollar oʻzgarishi nutqdagi qattiq chegaralarni kamaytirmoqda. Bu jarayonni sotsiologiya dinamik gender modeli bilan izohlaydi.

Gender variativlik tilning ijtimoiy tabiatini namoyon etuvchi muhim hodisadir. Erkaklar va ayollar nutqi oʻrtasidagi farqlar biologik omillardan koʻra koʻproq ijtimoiy, madaniy, psixologik omillar bilan izohlanadi. Oʻzbek jamiyatida gender variativlik milliy madaniyat, axloqiy meʼyorlar va urf-odatlar bilan yanada kuchli shakllangan. Zamonaviy jamiyatda gender rollari oʻzgargani sayin nutqdagi variativlik ham moslashmoqda. Shuning uchun gender lingvistik hozirgi kunda eng dolzarb sotsiologiya yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff R. Language and Woman's Place. — 1975.
2. Coates J. Gender and Linguistic Behavior. — London, 2004.
3. Trudgill P. Sociolinguistics. — Penguin, 2008.
4. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. — 2013.
5. Oʻzbek tilining sotsiologiya masalalari. — Toshkent, 2020.